

JAMIYATIMIZDA XOTIN-QIZLARNING ÒRNI VA ROLI

Samarqand davlat chet tillari instituti

Payariq xorijiy tillar fakulteti

xorijiy til va adabiyoti ingliz tili

yo 'nalishi 2302-guruh talabasi

Toshniyozova Sevinch

Anotatsiya: *Ushbu maqolada jamiyatning madaniy va ma'naviy barkamolligini tavsiflayotgan ayollarga bo'lgan e'tibor va munosabat ifodalab berilgan. Jamiyatimizda ayollarning madaniy balki, ijtimoiy sohalarida ham yetakchi o'rinlarni egallashiga qaratilgan bir qancha tizimli islohotlar yoritilgan. Shuningdek, ayollar va erkaklar o'rtasidagi tenglik, ya'ni Gender tenglik haqida ma'lumotga ega bo'lamiz.*

Kalit so'zlar: *Jamiyat, Gender tengligi, xotin-qizlar, ayollarga e'tibor, ta'lim, bandlik va kasb-hunar.*

Abstract: *This article describes the attention and attitude towards women, which reflects the cultural and spiritual maturity of society. The article highlights the systematic reforms aimed at ensuring women occupy leading roles not in cultural but also in social spheres in our society. We also gain insight into gender equality that is, equality between women and men.*

Key words: *Society, gender equality, women, attention to women, education, employment and profession.*

Bizning xalqimiz azaldan ayollarni hurmat qilib kelishgan. Erkaklar va bolalar doim ayollarni e'zozlashgan. Shu bilan birga ularga har qanday majburiyatlarni belgilashmagan. Ularga qollaridan kelganicha ko'maklashishgan. To'g'ri, bundan bir necha yillar oldin ayollarimiz og'ir mehnat bilan shug'ullangan, erkaklarga xos bo'lgan ishlarni ham qilishgan. Bunga sabab erkaklarimiz urushga jo'natilgan va ayollar ularning o'rniga ham uy-ro'zg'or ishlarini, ham front orti xizmatlarini qilishgan. Shunday og'ir kunlarni boshidan o'tkazgan xalqimiz nihoyat mustaqillikka erishdi va shu kundan boshlab xotin-qizlarga bo'lgan e'tibor, ehtirom tiklana boshladi. Va ayollar bilan bog'liq bir nechta ishlar va qarorlar ishlab chiqildi.

Bundan bir necha arslar oldin ham hozirgi kunda ham bolalarning tarbiyasida erkaklardan ko'ra ayollarning o'rni katta. Shu sababli, buyuk ma'rifatparvar Abdurauf Fitrat "Farzandlarimizni yaxshi xulq egalari qilib tarbiyalashimiz uchun avvalo, millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim" degan dono fikrlarga amal qilgan holda ish yuritmoqdamiz. Shu g'oyani ilgari surgan holda muhtaram prezidentimiz bir qator islohotlar olib bormoqda. Chunki, xalqimizda bir gap bor: "Erkak o'qisa bir odam o'qiydi, ayol o'qisa butun jamiyat, millat o'qiydi". Shuning uchun, hozirgi kunda xotin-qizlarning ilm olishiga katta ahamiyat berilmoqda va bir qancha yordamlar ko'rsatilmoqda. Masalan, yosh qizlar maktab vaqtida yaxshi o'qib yoki qo'shimcha to'garaklarga qatnab, Oliy ta'lim yurtlariga o'qishga hujjat topshirishi mumkin. Chunki ularda vaqt va bilim yetarlicha hisoblanadi. Biroq turmushga chiqqan ayollar, bolali onalar va kam ta'minlangan qizlarda bunaqa imkoniyat yoki mablag'

yetishmovchiligi bo'lishi mumkin. Shu sababli, muhtaram prezidentimiz bir qancha erkinliklar va qo'shimcha kvotalar ajratgan.

Xotin-qizlar o'qishga kirishida qo'shimcha davlat granti va imtiyozli kreditlar.

- Kam ta'minlangan oilalardagi xotin-qizlar;

- To'liqsiz oilada tarbiyalanyotgan yoxud ota-onasining ikkisi ham vafot etgan ijtimoiy himoyaga muhtoj;

- Turmush o'rtog'i vafot etgan. Voyaga yetmagan farzandini yolg'iz tarbiyalayotgan ijtimoiy himoyaga muhtoj ayollar;

- Nogironligi bo'lgan oilalardagi xotin-qizlar.

Mana shu sanab o'tilgan ehtiyojmand toifalarga tavsiyanoma Mahalla va Nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligi tomonidan beriladi hamda bu toifalar " Ayollar daftari"ga ham tegishlidir. " Ayollar daftari"ga 30 yoshdan oshgan xotin-qizlar kiritiladi.

OTM uchun 4% kvotani olishi mumkin. Bundan tashqari 2020-yil 18-fevraldagi PF-5988 "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora tadbirlari to'g'risida"gi farmani qabul qilindi. Bunda yordamga muhtoj va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar, nogironligi bo'lgan ayollarga ijtimoiy-huquqiy hamda qishloq sharoitidagi xotin-qizlarning oilaviy tadbirkorlikka jalb qilishga ham atroflicha to'xtab o'tilgan.

Ayollarga shuncha e'tibor qaratilgan bir vaqtda ularga nisbatan nomunosib ishlar ham uchrab turmoqda. Kun sayin ayollar va qizlarga nisbatan zo'ravonliklar ko'payib bormoqda. Shu sababli ham bu haqida bir qancha qonunlar ishlab chiqilmoqda. Yurtboshimiz xotin-qizlarimizni har tomonlama himoya qilinmoqda. Xotin-qizlarga nisbatan ruhiy va jinsiy zo'ravonliklarni oldini olish maqsadida ayollar o'zlarini himoya qilish orderlari bilan ta'minlanmoqda. Bu orderlar qachon va qay holatda beriladi degan savol hammaning hayoliga kelishi aniq. Bu orderlar bir ayol yoki qiz bir necha bor tahqirlansa yoki unga nisbatan zo'ravonlik qilgan insondan himoyalaniq maqsadida beriladi. Buni ham o'ziga yarasha tartib qoidalari mavjud: birinchi ogohlantiriladi, shu ogohlantirishga qaramasdan muntazam ravishda davom ettirsa, ayolga himoya orderi va jabr yetkazgan shaxsga nisbatan tegishli choralar qo'llaniladi. Bu order bilan ayol doimiy davlat himoyasida bo'ladi.

Bundan tashqari qizlarning shaxsiy raqam va rasmini ruxsatsiz tarqatgan yoki tarqatishga harakat qilgan shaxslarga ham tegishli choralar mavjud. Bular: shaxsiy raqamni tarqatganligi uchun - 3 yilgacha qamoq jazosi yoki 68 milliongacha jarimaga tortilishi mumkin. O'zbekiston respublikasi 547-sonli qonuniga ko'ra, telefon raqam shaxsiy ma'lumot hisoblanadi va ma' muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 46 prim 2-moddasiga ko'ra, shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish va tarqatishga nisbatan javobgarlik belgilangan bo'lib, hozirgi kunda bazaviy hisoblash miqdorining 7 baravari ya'ni 2 million 380 ming miqdoridagi jarimaga tortiladi. Agar shu holatni yana ma' muriy javobgarlikka tortilgandan so'ng 1 yil ichida takrorlasa, to'g'ridan to'g'ri jinoiy javobgarlikka tortiladi va jinoiy javobgarlik kodeksining 111 prim 2-moddasiga ko'ra 3 yilgacha qamoq jazosiga hukm qilinadi.

Shuni ham aytishimiz joizki, 2019-yil 2-sentabrda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquqli hamda imkoniyatlar kafolatlari" to'g'risidagi qonun mavjud bo'lib, 5-moddasida jins bo'yicha kamsitilishga yo'l qo'ymaslik, ya'ni har bir faoliyat turlarida ayollarimiz erkaklar kabi istagan kasbida ishlashi va o'z karyerasini tashkil qilishi mumkin. Chunki, bundan bir necha yillar avval ayollar davlat idoralarida ish faoliyatini olib borish huquqiga ega bo'lishmagan. Ularni hech bir korxonaga, idora ishga qabul qilmagan. Hozirgi kunda bunday noroziliklar bartaraf qilinmoqda. Tanzilla Norboyeva tashabbusi bilan " Gender tengligi" loyihasi ishga tushdi va barcha ayollar ishlash huquqiga ega bo'lishdi.

Yildan yilga ayollarimizning qadri yuksak darajalarga ko'tarilmoqda.

REFERENCES:

- 1) Sh.M.Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan videoselekt yig'ilishdagi asosiy ma'lumotlar. Elektron resurs.
- 2) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi PF-5988 son farmoni.
- 3) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining " Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilish tomonidan tartibga solishni soddalashtirish to'g'risidagi" 2020-yil 8-iyundagi PQ-4742 son qarori.
- 4) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Jinoyat kodeksi 547-sonli qonun.